

Ibragimov Ibragim Axmedovich  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi  
[ibragim.dilfuzagmail.com](mailto:ibragim.dilfuzagmail.com)  
UDK: 94(045)(575.1

## XORAZM VOHASI HUNARMANDCHILIGI – AJDODLARIMIZ MA'NAVIYATI

**Annotatsiya.** Xorazm vohasi geografik joylashishi jihatidan Turon zamini shimoli-g'arbida, Qizilqum va Qoraqum oralig'ida joylashib, O'zbekiston sernam va serunum tekisligining tarkibiy qismi hisoblanib, o'ziga xos geografik holati, iqlim sharoiti, tabiiy manbalari, ekologiyasi hamda antropogen landshafti, qo'shni tarixiy-geografik madaniy markazlaridan farqlanish xususiyatlariga ega bo'lib, bu xususiyat ajdodlarimizning joylashib, tabiiy resurslardan foydalanib, ixtiro qilib, xilma-xil vazifalarni bajaradigan ko'p tarmoqli hunarmandchilik sohalarini rivojlantirib, o'ziga xos xususiyatlariga ega ekanligi arxeologik izlanishlar natijalaridan ma'lum. Mazkur maqolada, Amudaryo dinamikasi natijasida ikki hududga bo'lingan. Xorazm tekisligida o'rnashgan ajdodlarimizning 40-12 ming yillikdan VII asrgacha hunarmandchilikni xilma-xil bilimini ixtiro qilib, ularni modernizasiya qilib, xo'jalikni barcha sohalarini rivojlantirish sohasida hayot va ijod uyg'unligi natijalarini tahlil qilish inobatga olingan.

**Kalit so'zlar:** Xorazm, Turon, Qoraqum, Qizilqum, Amudaryo, Ustyurt, Sulton Uvays, Burli-3, Yonbashaqala, Jonbas-4.

## РЕМЕСЛА ХОРЕЗМСКИХ ОАЗИСОВ – ДУХОВНОСТЬ НАШИХ ПРЕДКОВ

**Аннотация.** Хорезмский оазис расположен на северо-западе Туранской земли, между горами Кызылкум и Каракум, и является частью равнин Сернам и Серум в Узбекистане. Из результатов исследований известно, что он имеет уникальное географическое положение, климатические условия, природные ресурсы, экологию и антропогенные ландшафты, а также исторические обстоятельства. Обладая ими, используя эти замечательные ресурсы, из результатов исследований известно, что человек с уникальными характеристиками развил характеристики многопрофильного ремесла, которое управляет различными задачами, и развил их.

В этой статье анализируются результаты гармонии жизни и творчества в развитии всех отраслей экономики, изобретении и модернизации знаний о ремеслах наших предков, которые поселились на Хорезмской равнине, которая была разделена на две территории в результате динамики Амударьи, с 40-12 тысяч лет назад до VII века.

**Ключевые слова:** Хорезм, Туран, Каракумы, Кызылкумы, Амударья, Устюрт, Султан Увайс, Бурли-3, Йонбашкала, Йонбас-4.

## KhOREZM OASES HANDICRAFTS – THE SPIRITUALITY OF OUR ANCESTORS

**Annotation.** The Khorezm oasis is located in the north-west of the Turanian land, between the Kyzylkum and Karakum mountains, and is part of the Sernam and Serum plains of Uzbekistan. It is known from the results of research that it has a unique geographical situation, climatic conditions, natural resources, ecology and anthropogenic landscapes, and historical circumstances. Having them, using these wonderful resources, it is known from the results of research that a person with unique characteristics has developed the characteristics of a multidisciplinary craft that manages various tasks, and has developed them.

This article analyzes the results of the harmony of life and creativity in the development of all sectors of the economy, inventing and modernizing the knowledge of crafts of our ancestors,

who settled in the Khorezm plain, which was divided into two territories as a result of the dynamics of the Amu Darya, from 40-12 thousand ears ago to the 7th century.

**Keywords:** Key words: Khorezm, Turan, Karakum, Kyzylkum, Amu Darya, Ustyurt, Sultan Uvays, Burli-3, Yonbaskala, Yonbas-4.

Xorazm vohasi Turon pasttekisligi shimoli-g'arbida joylashgan bo'lib, uning ekin tekislikka qulay hududi janubiy hudud sari yo'nalgan bo'lib, u g'arbiy va janubiy tomonda Qoraqum, sharqiy tomondan Qizilqum bilan cheklangan. Bundan 25 milliondan 500 ming yilliklarda Xorazm vohasi tekislik bo'lgan, uning geografik sharoitini Sulton Uvays, Yumurtog', Qubatoq'lar belgilab bergan.

Xorazm vohasi suv bilan ta'minlanishi tabiat xadyasi, Amudaryoni O'rta Osiyo janubi-sharqiy hududida osmono'par tog'lardan oqib tushgan jilg'alar suvlarini qamrab olib, suvini Qoraqum sahrosidan oqib borishi natijasida nishoblashgan xarakterda hududni ikki qismga – o'ng va so'l hududlarga ajratgan. Mazkur maqolada Xorazm vohasida tosh davri so'nggi bosqichida ajdodlarimizni mehnat qurollarini ishlab chiqarib, kundalik faoliyatlarini olib borganligi tarixini yoritishdan iborat.

O'tgan asr adabiyotlarida qayd qilinishicha O'rta Osiyoning hududlari geologik jarayonning to'rtlamchi davrida tekislik bo'lgan bo'lsa (25 million- yildan 600 ming yilliklarda) [1. 1990 -S.14. 2. 2002-B. 283]. Xorazm vohasi geografik joylashishi jihatidan Ustyurt hududiga qaraganda odamzot tomonidan Ashel davrlari, o'rta tosh davrida odamzot tomondan o'zlashtirilmagan [3. 1983 -S.65-68].

B.V.Andrianov qayd qilishicha so'nggi tosh davri o'rta qismida (40 ming yil) Amudaryo Xorazm tekisligini ikki qismga ajratgan [4. 1969 -S.98].

S.P.Tolstov, A.V.Vinogradov va E.A.Vinogradova asarlarida tosh asri ilk bosqichlarida Burli-3, Jonbas-4 manzilgohlarida o'rnatilgan ovchilar va termachilarning kundalik faoliyatlarida qo'llanilgan tosh qurollari va kulolchilik san'ati ashyolari namunalari qayd qilinib, ularning xronologiyasi 40 ming yillikdan - IV ming yillik bilan belgilangan [5. 1948 - S.59-65, 6.1968-S177, 7.1998-S.74-77].

Shu tariqa, Xorazm ekspeditsiyasi tomonidan Xorazm vohasida so'nggi tosh davridan-ilk neolit davrida Sulton Uvays tog'i etaklarida ovchilar joylashgan, mil.avv.IV mingyillikka kelganda Qizilqum hududidagi Yonboshqal'a balandligi yon qismiga Jonbas-4 manzilgohini kashf qilib, kundalik faoliyatini kengaytirganlar.

Obyektivlik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, bahs, munozara, umumlashtirish, mantiqiy xulosa.

Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari nashrlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlilda hosil bo'lgan xulosalar asosida voha hududida o'rnatilgan urug' jamoalarini turli vazifani bajaradigan mehnat qurollarini tahlil qilish mumkin: Chunonchi, S.P.Tolstov, A.V.Vinogradov va M.A.Itina tadqiqotlarida neolit davri urug' jamoalarining kvarsit va chaqmoqtoshdan mehnat qurollari va oshxonaga mo'ljallangan xajmi kichik, tashqi devorlarida xilma-xil bezakli idish-tavoqlar namunalari aks ettirilib, urug' jamoa a'zolarining kundalik kasbi-korlarini maqolada tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib, quyidagi natijalar qayd qilindi:

-25-10 million yillikdan- 600 ming yillikda Xorazm vohasi tekislik bo'lgan;

-Tosh asrini so'nggi tosh Burli-3 va o'rta tosh davri Jonbas-4 manzilgohlari urug' jamoalarining tosh qurollar va kulolchilik san'ati namunalari texnologiyalari tahlil qilindi.

Maqola tahlil va natijalarini quyidagi xulosa bilan qayd qilish mumkin:

-Xorazm vohasi geografik joylashish sharoiti, iqlimi, tabiiy resurslari aholi joylashishi jihatlaridan farqlanadi;

-Respublikaning tog'li hududlariga qaraganda ibtidoiy ovchilar tomonidan kech o'zlashtirilgan;

-Tosh davri so'nggi tosh va ilk tosh mezolit davrlarida odamzot Sulton Uvays tog'i etaklarida joylashganlar.

-Mil.avv.IV – mingyilikka kelganda Qizilqum geografik muhitini aks ettirgan Jonbasqal'a balandligi atrofiga kelib joylashib, Jonbas-4 manzilgohiga asos solganlar.

**Takliflar quyidagicha izohlandi:**

1.Xorazm vohasining geomorfologik tuzilishi xususiyatlarini qo'shni hududlar bilan qiyoslash;

2.Amudaryo harakati tarixini o'rganish;

3.So'nggi tosh davri tosh qurollarini o'rta neolit davrlari hunarmandligini hozirgi vaqtda takrorlanishi, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.Kabirov J, Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi- 1990.
- 2.Baratov P, Mamatqulov M, Rafikov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi- Toshkent, O'qituvchi. 1996.
- 3.Bijanov E.B. O naxodkax pamyatnikov kamennogo veka v rayone vpadini Shaxpaxti na Ustyurte //Vestnik Karakalpakskogo filiala Akademii nauk Uz SSR- Nukus, 1983.
- 4.Andrianov B.V. Drevnie orositelnie sistemi Priaralya-M: Nauka. 1968.
- 5.Tolstov S.P. Drevniy Xorezm.M. MGU, 1948.
- 6.Vinogradov A.V. Neoliticheskie pamyatniki Xorezma- M:Nauka 1968. Vip.8.
- 7.Vinogradova E.A. Pervie paleoliticheskie naxodki v Sultanuizdage //Priarale v drevnosti srednevekove //M:IVL RAN, Nauka 1998.